

O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KICHIK BIZNESNING AHAMIYATINI OSHIRISH YO'LARI

Eshqulova Nasiba Normo'minovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
ORCID: 0009-0008-4177-4084

Annotatsiya. Maqolada mamlakatning iqtisodiy o'sishida hamda barqarorlikka erishsishida tashqi savdo, eksport tarkibi va diversifikatsiyasini oshirishda kichik biznes subyektlarining o'rni, ularning mamlakat eksportidagi ulushi tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes hamda xususiy tadbirdorlik subyektlarining eksport salohiyatidan samarali foydalanish hamda eksport diversifikatsiyasini oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, tashqi savdo, eksport, diversifikatsiya, kichik biznes, eksportni qo'llab-quvvatlash.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В ЭФФЕКТИВНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЗБЕКИСТАНА

Эшқулов Насиба Нормуминована
Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация: В статье анализируется роль малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства в развитии внешней торговли, её диверсификации и обеспечении стабильного экономического роста страны. На основе анализа разработаны научно обоснованные практические предложения и рекомендации по устранению существующих проблем в эффективном использовании потенциала малого бизнеса в развитии экспортта.

Ключевые слова: экономический рост, внешняя торговля, экспорт, диверсификация торговли, малый бизнес, поддержка экспорта.

WAYS TO INCREASE THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN THE EFFECTIVE UTILISATION OF UZBEKISTAN'S EXPORT POTENTIAL

Eshkulova Nasiba Normo'minovna
Termez University of Economics and Service

Abstract. The article analyses the role of small business and private entrepreneurship in the development of foreign trade, its diversification and ensuring stable economic growth of the country. On the basis of the analysis scientifically substantiated practical proposals and recommendations to eliminate existing problems in the effective use of the potential of small business in the development of export are developed.

Keywords: economic growth, foreign trade, export, trade diversification, small business, export support.

Kirish.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etib, mamlakat iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jahan tajribasidan bizga ma'lumki, hozirgi kunda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri tashqi savdo xususan, eksport salohiyati va eksport diversifikatsiyasi hamda bu orqali mamlakatda tez fursatlarda iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini yaqqol ko'rshimiz mumkin.

Eksport diversifikatsiyasi hamda uning salohiyatini oshirish mamlakatning eksport qiladigan tovar va xizmatlar assortimentini kengaytirishni anglatadi. Bu jarayon orqali bitta yoki bir nechta asosiy eksport tovarlariga qaramlik kamayib, yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar kirib keladi. Shuningdek, mamlakatda milliy valyuta zaxiralari oshadi, milliy iqtisodiyotga qo'shimcha resurslar taqdim etiladi, ko'plab ish o'rnlari yaratiladi, mamlakat o'zida mavjud bo'limgan resurslar va xom ashyo bilan ta'minlanadi, bu esa umumiyl ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Eksport daromadlari import xarajatlarini qoplab, savdo balansini ijobjiy holatda ushlab turish bilan birga, xalqaro bozor talablariga moslashish orqali narxlarni optimallashtiradi.

Yurtimizda so'nggi yillarda tashqi savdo diversifikatsiyasi, xususan, eksport faoliyatini olib boruvchi kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga doimiy e'tibor qaratilib, ularning eksport salohiyatini yanada kengaytirish, zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Bu orqali ushbu yo'nalishda bajarilayotgan keng ko'lamli ishlar, ilg'or hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bular jumlasiga, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"dagi 28-maqsadida eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, xususiy sektorning eksportdag'i ulushini 60 foizga yetkazish, eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish maqsad qilingan.

Shuningdek, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish haqida ta'kidlangan bo'lsa, 29-maqsadida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdag'i ulushini 80 foizga va eksportdag'i ulushini 60 foizga yetkazish haqida ta'kidlangan (Farmon, 2022).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-fevraldag'i "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 87-sonli qarorida esa, raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarining jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda xizmatlar eksport faoliyatini olib boruvchi xorijiy kompaniyalarni mamlakatimizga keng jalb etish, mahalliy bozor uchun IT (texnologik park) - xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarini xalqaro IT-bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, IT-park rezidenti bo'lgan tashkilotlarga eksport jarayonlarini tashkil etish yo'nalishlarida IT-park tomonidan bepul maslahat (eksport mentoring) xizmatlari ko'rsatishi to'g'risidagi vazifalar belgilangan (Qaror, 2024).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-fevraldag'i "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" 87-sonli qarorida esa, raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda xizmatlar eksport faoliyatini olib boruvchi xorijiy kompaniyalarni mamlakatimizga keng jalb etish, mahalliy bozor uchun IT (texnologik park) - xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni xalqaro IT-bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, IT-park rezidenti bo'lgan tashkilotlarga eksport jarayonlarini tashkil etish yo'naliishlarida IT-park tomonidan bepul maslahat (eksport mentoring) xizmatlari ko'rsatishi to'g'risidagi vazifalar belgilangan (Qaror, 2024).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 37-sonli qarorida yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish to'g'risida, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirib, eksport hajmi o'sishini 25 foiz darajasida ta'minlash, xususan, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobarga, eksportni hajmini 1,5 barobarga oshirish, ipak mahsulotlarining eksportini 150 mln. AQSH dollarga yetkazish, meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini esa kamida 2,5 mlrd. AQSH dollarga yetkazish to'grisida ta'kidlangan. Shuningdek, ushbu strategiyaning 55-maqсадида milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish vazifasi belgilab qo'yilgan (Qaror, 2024).

Shu sababli mamlakatimiz eksportining diversifikatsiyasini ta'minlashda kichik biznesning salohiyatini o'rGANISH, ularning salohiyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etsih hamda kichik biznes subyektlarining eksportini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmini takoillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish o'ta dolzarb masaladir.

Adabiyotlar sharhi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xalqaro savdo, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning rivojlanishi hamda bu sohada eksport salohiyati va diversifikatsiyasini oshirish to'g'risida xorijiy mamlakatlarning bir qator iqtisodchilari izlanish va tadqiqotlar olib borishgan.

Epede va Wanglar (2022) rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun global qiymat zanjirlariga ulanish imkoniyatlari va muammolarini ko'rib chiqib, yangi yondashuvlar hamda strategiyalarni ishlab chiqqan. Tadqiqot davomida global qiymat zanjirlari xalqaro savdo va ishlab chiqarish tarmoqlarida firmalar o'rtasidagi munosabatlar hamda hamkorlikni ifodalab, ilg'or texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi xalqaro bozorlarga kirish uchun muhim imkoniyatlar, korxonalar xalqaro standartlarga mos ravishda malakali ishchi kuchini tayyorlash va boshqaruv qobiliyatlarini oshirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lshini ta'kidlagan. Shuningdek, global qiymat zanjirlariga kirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar va moliyaviy resurslarning yetishmasligi, xalqaro standartlar va qoidalar bilan bog'liq me'yoriy talablarni bajarish qiyinligi, zamонавиу texnologiyalar, shu bilan birga infratuzilmalarning yetishmasligi kabi muammo va to'siqlarni aniqlashgan.

Moen, Heggeseth va Lomelar (2016) esa Norvegiyadagi tadqiqotlar natijasida, motivatsiya va xalqaro yo'naliishing kombinatsiyasi kichik biznes subyektlarining o'sishiga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatishi, daromad va foyda ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi va bu ikki omilning birgalikda mavjudligi kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun optimal sharoit yaratadi degan xulosaga kelishgan.

Miocevic (2021) xalqaro bozorga chiqish strategiyalarini optimallashtirish va ularning global raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi tushunchalar va amaliy tavsiyalar berib, o'z tadqiqoti davomida kichik va o'rta korxonalar uchun dinamik eksport qobiliyatlarini, bozor va mahsulot diversifikatsiyasining foydalilik ta'sirini o'rganadi. Ushbu tadqiqotda dinamik eksport

kompaniyaning eksport bo'yicha tez va moslashuvchan qaror qabul qilish qobiliyatları, bozor va mahsulot diversifikatsiyasi esa kompaniyaning turli bozorlar hamda mahsulotlar bilan ishslash qibiliyatları ekanligi ta'kidlanib, bular orqali kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun foydalilik va barqarorlikni oshirish bilan birga, yangi mijozlarni, bozor segmentlarini qamrab olishi, tezkor va moslashuvchan qarorlar qabul qilishi hamda xalqaro bozorda tezkor va samarali javob berish imkonini berishini ta'kidlab o'tgan.

Mamlakatimizning qator olimlari, jumladan, Xursanaliev (2024), Ismanov, Qudbiyev, Mamasolayeva (2022), Qulliyev (2024), Ne'matova (2023), Ikromov (2023) lar kichik biznes subyektlarining mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishda eksport salohiyatini oshirish, uni diversifikasiyasini kengaytirish to'g'risida tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada xalqaro savdoning rivojlanishida, xususan, eksport tarkibi va diversifikasiyasini oshirishda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarining ahamiyati, ularning eksport salohiyatini yanada kengaytirish bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalari, xalqaro va milliy statistika ma'lumotlarini taqqoslash, guruhash, iqtisodiy tahlil va sintez, abstrakt mantiqiy tahlil hamda analitik tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari asosida sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda 2023 yilda tashqi savdo aylanmasi 62 567,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022-yilga nisbatan solishtirganda, 12 167,1 mln. AQSH dollariga oshib, 23,9 % ga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport hajmi 24 426,2 mln. AQSH dollariga, import esa, 38 141,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Mazkur ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, 2010-2023 yillar davomida tashqi savdo aylanmasida import hajmi eksportga nisbatan yuqori bo'lgan(1-rasm).

Tashqi savdoning salbiy saldosi ko'pchilik mamlakatlarga, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. Shu bilan birga uzoq muddatda tashqi savdoda salbiy saldoni saqlanib turishi milliy valyuta kursining pasayishi, tashqi qarzdorlikning oshishi, mamlakat iqtisodiy o'shining susayishi va ko'plab boshqa salbiy ta'sirlar sababchisi bo'ladi. Bu bilan ushbu muammoni importni cheklash orqali bartaraf etib bo'lmaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur sharoitda importni cheklash emas, aksincha eksportni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun tavsiyalar berilgan. O'z navbatida eksportning kengaytirishga uning diversifikasiyasini muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi (Eshqulova, 2023). Eksport diversifikasiyasini nafaqat uning barqarorligini ta'minlaydi, balkim uning tarkibida yangi tovarlar paydo bo'lishi orqali yangi imkoniyatlar aniqlanadi (Отамуродов, 2022). Aniqlangan imkoniyatlar asosida mamlakatlar eksportini ko'paytirishga erishiladi. Tashqi bozor konyunkturasi o'zgaruvchan, shu sababli tashqi bozorda raqobatbardoshlikni yo'qotmaslik uchun uning tarkibini yangilab borish muhimdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida eksport diversifikasiyasini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda eksport mahsulotlari diversifikasiyası, eksport qilinadigan tovarlar miqdori, uning turlari va geografiyasini ko'paytirish maqsadida mamlakatdagи eksportyorlar soni 7255 taga yetib, ular tomonidan 16 169,6 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilindi. Bu 2022-yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga oshib, eksport tarkibida tovarlar ulushi 78,8 % ni, xizmatlar esa 21,2 % ni tashkil etgan. XSST bo'yicha tovarlar eksporti tarkibida nomonetar oltin (33,4%), sanoat tovarlari (16,6%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,3%), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (5,4%), mashinalar va transport asbob-uskunalar (5,3%) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (3,9%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

1-rasm. Tashqi savdo aylanmasi. (mln. AQSH doll.)¹⁵


Rivojlangan mamlakatlardagi YAIMning 70 foizga yaqini, eksportning esa qariyb 40 foizga yaqini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarning 90,9 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Bularda eng ko'p hissa qurilish va savdo (90 %), xizmatlar sohasi (67%) va sanoat sohasi (50%) ga to'g'ri kelmoqda¹⁶.

O'zbekiston ham jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimotida o'zining asosiy o'rnnini egallash, milliy iqtisodiyotimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqib, tez fursatlarda iqtisodiy o'sishga erishishni maqsad qilgan. Bu maqsadni amalga oshirishdagi muhim vazifalardan biri tashqi iqtisodiy munosabatlar, tashqi savdo, xususan eksport diversifikatsiyasini kengaytirish hisoblanadi. Bu sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy hamda chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, keng assortimentli mahsulot va xizmatlar yaratishda alohida e'tibor qaratilib, bir qator ijobjiy natijalarga erishdi. Eksport salohiyatini oshirishda, chet el bozorlarida raqobatbardosh, keng assortimentli mahsulot va xizmatlarni yaratishda, uning tarkibi va geografiyasini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rni kattadir.

2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy tarmoqlardagi ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (94,8 %), chakana savdo (83,8%), qurilish (74,7 %), xizmatlar sohasi (47,7 %) va sanoat (26,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, YAIM tarkibida esa kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 51,2 % ni tashkil qilib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (95,6 %), qurilish (77,0 %), xizmatlar sohasi (40,4 %) va sanoat (21,4 %) tarmoqlari egallagan (2-rasm).


¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari // (www.stat.uz)

¹⁶ Entrepreneurship and small and medium-sized enterprises. An official website of the European Union //https://ec.europa.eu/growth/smes/sme-definition_en




2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy tarmoqlardagi ulushi (% da)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 26,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. 2023- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 7092,1 mlrd. AQSH dollarni, ya'ni umumiyligi eksport hajmini 29,0 foizini, import hajmi esa 19 349,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, jami import hajmining 50,7 foizini tashkil etdi. Afsusku, bu sohada ham tashqi savdoda salbiy savdo balansi (19 342,4 mlrd. AQSH dollari) qayd etilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo dinamikasi (mlrd. AQSH doll.)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 2010-yil bilan solishtirganda 5 309,3 mlrd. AQSH dollarga, qariyb 4 barobarga oshgan. Yillar kesimida qaraydigan bo'lsak, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti umumiy eksport hajmining 2018-yilda 27,2 foizini, 2019-yilda 27 foizini, 2020-yilda 20,5 foizini, 2021 yilda 20 foizini, 2022-yilda esa 31,2 foizni tashkil qilgan (3-rasm).



3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi (mlrd. AQSH doll.)

2023 yilda mamlakat bo'yicha jami eksport hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 29 foizni tashkil qilgan. Jami eksportda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushini hududlar kesimida qaraganda, eng ko'p ulush Surxondaryo viloyati (72,4 %), Farg'ona viloyati (68,4 %), Xorazm viloyati (64,2 %), Sirdaryo viloyati (63,4 %), Buxoro viloyati (45,9 %) va Jizzax viloyati (43,5 %) ga, eng past ko'rsatkich esa Navoiy (9,0 %) viloyatiga to'g'ri kelgan (4-rasm).



4-rasm. Hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar,xizmatlar) eksportidagi ulushi (%)

Xususan, yillar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi 2010 yilda 1782,8 mldr AQSH dollarini 2023-yilda esa 7092,1 AQSH dollarini AQSH dollarini tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan 5 309,3 mldr so'mga oshib, qariyb to'rt barobarga oshgan. Bunda eng yuqori ko'rsatkichni Toshkent shahri (1197,6 mln. AQSH doll.), Toshkent viloyati (603,8 mln. AQSH doll.) va Farg'ona viloyatlari (464,3 mln. AQSH doll.), eng quyi ko'rsatkichni esa, Jizzax viloyati (75,4 mln.. AQSH doll.) hamda Navoiy viloyatlari (58,5 mln.AQSH doll.) qayd etmoqda. 2010 yil bilan taqqoslaganda esa, Xorazm viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi 176,9 mln. AQSH dollarga oshib, 14,1 barobarga o'sgan (1-jadval).

1-jadval

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi
mlrd.AQSH.doll.¹⁷**

Nº	Hududlar	2010	2015	2020	2023	O'sish barobar (2010-2023)
1	O'zbekiston Respublikasi	1782,8	3377,7	3100,9	7092,1	3,97
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,3	27,1	78,2	93,6	8,2
3	Andijon viloyati	40,4	105	252,5	338	8,4
4	Buxoro viloyati	25,6	115	101	134,3	5,2
5	Jizzax viloyati	85,3	37,6	76,5	75,4	0,8
6	Qashqadaryo viloyati	30,9	24,4	110,7	94,6	3,06
7	Navoiy viloyati	55,8	65,9	50,3	58,5	1,04
8	Namangan viloyati	291,4	85	197,8	229,1	0,79
9	Samarqand viloyati	66,6	173,7	191,8	315,8	6,05
10	Surxondaryo viloyati	52,1	72,8	134,8	157,6	3,02
11	Sirdaryo viloyati	43,8	90,4	143,6	211,3	2,03
12	Toshkent viloyati	296,1	651,3	501,9	603,8	5,63
13	Farg'ona viloyati	82,4	140	319	464,3	5,6
14	Xorazm viloyati	13,5	19,7	119	190,4	14,1
15	Toshkent shahri	687,5	640	578,1	1197,6	1,74


Tahlillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2023 yilda Navoiy viloyatida tashqi savdo aylanmasi 1 326,6 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Ushbu yilda yalpi hududiy mahsulotning 26,0 foizi (2022-yilda 25,9 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi. Bunda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 7 795,0 mldr. so'm (7,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklar 18 909,8 mldr. so'm (96,0 %), investitsiyalar 12 461,6 mldr. so'm (48,2 %), qurilish ishlari 5 312,6 mldr. so'm (79,1 %), chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 11 237,2 mldr. so'm (93,8 %) hamda xizmatlar 6 570,8 mldr. so'm (57,0 %) shakllantirildi.

Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo aylanmasi 304,2 mln. AQSH dollarini qayd etib, 58,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 9,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 245,7 mln.AQSH dollari (umumiy import hajmining 36,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi¹⁸.

Bu sohada eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilda (103,4 mln. AQSH doll.) qayd qilingan bo'lib, ushbu yil bilan taqqoslaganda, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 44,5 mln. AQSH dollariga, ya'ni 76,7 foizga kamaygan. Navoiy viloyatida eksportga yo'naltirilgan yirik sanoat zonalari mavjud bo'lib, bular mamlakatimiz iqtisodiyoti ruvojlanishida o'zining katta hissasini qo'shib kelishiga qaramasdan, bu sohada kichik tadbirkorlik subyektlarining o'rni juda orqada ekanligini tahlliarda ko'rishimiz mumkin (5-rasm).

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari // (www.stat.uz)

¹⁸ Navoiy viloyati ochiq statistika ma'lumotlari // (www.navoiy.stat.uz).



5-rasm. Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo dinamikasi (mln. AQSH doll.)

Tahlillardan ko'rindan, ushbu yo'nalishning mamlakat taraqqiyotidagi sezilarli ta'sir etib, iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan aholi daromadlarini oshirishda, ishsizlikni oldini olish va yangi ish o'rnlari yetakchi o'rinn tutmoqda. Shu bilan birga bu sohada eksport salohiyati va uning diversifikatsiyasini kengaytirish hamda sohada mavjud muammolarni yechish yo'llarini tadqiq qilish, ularning samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Tashqi savdo mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi uchun ko'p jihatdan muhimdir. U iqtisodiy o'sish va rivojlanish, savdo balansi, bandlik, raqobatbardoshlik, texnologik innovatsiyalar va global integratsiya kabi ko'plab sohalarda ijobji ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, mamlakatlar tashqi savdoni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun strategik choralarini ko'rishlari lozim. Bu orqali milliy iqtisodiyot barqaror va samarali rivojlanishga erishishlari mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida salbiy savdo balansi qayd etilmoqda. Bu muammoni yengish uchun, eksportning diversifikatsiyasi va uning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Eksport diversifikatsiyasi yangi tovarlarning paydo bo'lishi va yangi imkoniyatlarni aniqlashga olib keladi. Bu imkoniyatlar asosida mamlakatlar o'z eksport hajmini oshirishga erishadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini va diversifikatsiyasini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shib, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. Moliyaviy resurslarga oson kirish imkoniyatini, turli geografik hududlarga eksport qilish risklarni kamaytiradi va barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun eksport jarayonlarini osonlashtirish maqsadida bojxona va soliq to'lovlarini soddalashtirish kerak. Bu orqali ularning xalqaro bozorlarga chiqishini yengillashtirish mumkin.

Eksportyorlar uchun moliyaviy yordam va subsidiyalar joriy etish, ayniqsa endi faoliyat boshlagan eksportyorlar uchun maxsus kredit liniyalari tashkil qilish kerak. Bu kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari eksport imkoniyatlarini oshirishda yordam beradi.

Shuningdek, eksportga yo'naltirilgan infratuzilmani, masalan, logistika va transport infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa, tezkor va samarali transport xizmatlarini ta'minlash, bu orqali tovarlarning xalqaro bozorlarga chiqishini osonlashtirish mumkin.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlardagi imkoniyatlarini oshirish uchun davlat tomonidan marketing va bozor tadqiqotlari o'tkazishi, imtiyozli kreditlar, grantlar va moliyaviy yordam dasturlarini taqdim etish, barcha viloyatlarda tadbirkorlik palatasini tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etish hamda endi faoliyat boshlamoqchi bo'lgan tadbirkorlarga eksportga yo'naltirilgan tadbirkorlik ta'limi va trening dasturlarini tashkil etish lozim.

Xuddi shunday, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Bu orqali ularning mahsulotlari sifatini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, kichik biznes subyektlarini xalqaro savdo tarmoqlariga integratsiyalashuvini ta'minlash kerak. Bu orqali kichik bizneslar xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini samarali olib borishida raqamli texnologiyalarning va elektron to'lov tizimining o'rni juda muhim. Bu borada elektron tijorat platformalari (Amazon, e-Bay, Alibaba, Taobabo, Uzum, Olcha) va B2B (Business-to-Business) tarmoqlaridan foydalanish orqali yangi mijozlarni jalb qilish, eksport qilinadigan tovarlarni reklama qilish hamda sotish imkoniyati, shuningdek, O'zbekistondan mahsulotlarni internet-do'konlar orqali bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirmay eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari, autsorsing xizmatlari, yangiliklar hamda imtiyozlar to'grisida online ma'lumotga (masalan "UzTrade" savdo platformasini kabi) ega bo'lishlari mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Anvar o'g'li, Q. O. (2024, March). O'zbekiston respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirishga mo'ljallangan chora tadbirlar. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 59-65).

Egamgamberdievna N.S. (2023) Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida raqobat muhitini taminlashda kichik biznes subektlari faoliyatini rivojlantirishning muhim omillari //journal of innovations in scientific and educational research. – T. 6. – №. 3. – C. 294-300.

Epede, M. B., & Wang, D. (2022). Global value chain linkages: An integrative review of the opportunities and challenges for SMEs in developing countries. International Business Review, 31(5), 101993.

Farmon (2022) 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

Miocevic, D. (2021). Dynamic exporting capabilities and SME's profitability: Conditional effects of market and product diversification. Journal of business research, 136, 21-32.

Moen, Ø., Heggeseth, A. G., & Lome, O. (2016). The positive effect of motivation and international orientation on SME growth. Journal of small business management, 54(2), 659-678.

Nabiyevich I. I. (2022) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos jihatlari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. T. 2. – №. 4. – C. 199-205.

Normo'minovna, Eshqulova Nasiba. (2023) "O'zbekiston eksporti diversifikatsiyasining yo'nalishlari." Journal of Universal Science Research 1.12: 599-610.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-fevraldagagi "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 87-sonli qarori

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-fevraldag'i "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 87-sonli qarori

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldag'i "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi 37-sonli qarori

Tojiyeva M. M. (2023) Kichik biznesni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati //qo 'qon universiteti xabarnomasi. – T. 9. – C. 126-130.

Xursanaliyev B. (2024) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo 'llab-quvvatlanishida xorijiy tajriba //Qo'qon universiteti xabarnomasi. – T. 10. – C. 21-24.

Отамуродов, Шавкат. (2022)"Ўзбекистон экспорти диверсификациясининг замонавий муаммолари." *Economics and Innovative Technologies* 10.4: 355-364.